

---

## Tibbiyot muassasasidagi shart-sharoitlar o'rganildi

Bugun Farg'ona viloyati va shahar hokimlarining o'rinbosarlari Komilaxon Kavlonova hamda Dilshodaxon Xolmatovalar viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga tashrif buyurdilar.

Hokim o'rinbosarlari tibbiyot muassasasida bemor bolajonlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rgandilar. Shifokorlar tomonidan bemor bolajonlarning bugungi kundagi holati, olib borilayotgan muolajaalar haqida ma'lumotlar berildi.

Ayni kunda shifoxonada 350 nafar bemor bolalar davolanmokda. Ular orasida dori mahsulotlaridan zaharlangan yoki iste'moldan so'ng sog'lig'ini yo'qotgan bolalar aniqlanmadi.

O'rganish davomida tibbiyot muassasasining issiqlik holati ham me'yorda ekanligi aniqlandi. Hokim o'rinbosarlari tomonidan bolajonlarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-01-05 10:25:32